

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALLABERDIYEV BOBUR BAXTIYOROVICH

**O'ZBEK VA QOZOQ TILLARI O'RTASIDA MASHINALI TARJIMA
TIZIMI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Allaberdiyev Bobur Baxtiyorovich

O'zbek va qozoq tillari o'rtasida mashinali tarjima tizimi 3

Аллабердиев Бобур Бахтиёрович

Система машинного перевода между узбекским и казахским языками23

Allaberdiev Bobur Bakhtiyorovich

Machine translation system between Uzbek and Kazakh languages 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALLABERDIYEV BOBUR BAXTIYOROVICH

**O'ZBEK VA QOZOQ TILLARI O'RTASIDA MASHINALI TARJIMA
TIZIMI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.airi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmonov Zafar Ravshanovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna
texnika fanlari doktori, professor

Madraximov Shavkat Fayzullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13/30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 27 ~~dekabr~~ soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (99871) 263-41-98, e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (50 raqam bilan ro'yxatga olingan). (100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (99871) 263-41-98).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "17" ~~dekabr~~ kuni tarqatildi.

(2024-yil "10" ~~dekabr~~ dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

Sh.X.Fozilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko'plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internet termog'ida axborotlarni nafaqat tez va samarali izlash, balki turli tillar o'rtasida samarali mashinali tarjima tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyatni ommaviy raqamlashtirish tufayli insonning kundalik hayotida turli tillardagi axborotlar hajmi kundan-kunga ortib bormoqda. Madaniyatlararo muloqot ko'p odamlar hayotining ajralmas qismidir, shuning uchun tarjima tizimlaridan foydalanish oddiy internet foydalanuvchisi uchun kundalik bajariladigan ishdir. Tillararo murakkablik va noaniqlik barcha tabiiy tillarni qayta ishlash ishlariga xos bo'lgan muammolardan sanaladi. Shu munosabat bilan, til to'siqlarini bartaraf etishga qaratilgan izlanishlarga talab odatdagidan ancha yuqori. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalari asosida turkiy tillar uchun mashinali tarjima muammosini kompleks tadqiq qilish, turkiy tillar o'rtasida mashinali tarjimini amalga oshirishning samarali modellarini ishlab chiqish va algoritm hamda dasturiy majmuasini ishlab chiqish sun'iy intellekt sohasining muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borildiki, turkiy tillardan ma'lumot to'plash, qayta ishlash va kibermakonda uzatish tillari sifatida faol foydalanish tizimlari hamda texnologiyalari yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda tillararo tarjima tizimlariga, matnlarning morfologik tahlili va annotatsiyasini avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli tillarning xususiyatlarini inobatga olgan holda yig'iladigan yirik hajmli ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularni qayta ishlash va ular asosida yangi bilimlarni hosil qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, turkiy tillar uchun neyron mashinali tarjima modelini qurish va parallel korpus yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy va fundamental ahamiyatga ega bo'lgan sanoat, logistika, tibbiyot, qishloq va suv xo'jaligi, telekommunikatsiya va ijtimoiy sohalardagi amaliy masalalarni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, matn ko'rinishida yozilgan iqtibos hamda fikrlarni sentiment tahlil qilish, o'zbek tili uchun sentiment tahlil korpusini qurish va uning asosida axborot modellar yaratish, tematik modellashtirish va hujjatlarning mazmunan haqqoniylik parametrini aniqlash bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. "Sun'iy intellektni mashina yordamida o'qitish uchun yirik hajmli davlat tilidagi raqamli ma'lumotlarni shakllantirish, shuningdek, davlat tilidagi nutqni tahlil va sintez qilishni qo'llovchi intellektual dasturiy mahsulotlarni yaratish" ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan¹. Qaror ijrosini ta'minlashda turkiy tillar uchun grammatik qoidalarining ontologik modellarini va neyron mashinali tarjima modelini qurish, mashinali o'qitish algoritmilarini hamda dasturiy majmuasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17 fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori, 2019-yil 24-mayda O'zbekiston Milliy universitetidagi fan va ta'lim vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son qarori, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son qarori, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda ikki til o'rtasida tarjima tizimi, mashinali tarjima, tarjima modellari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borgan olimlarning ishlari o'rganilib chiqildi. Jumladan, mashinalardan foydalanish orqali tarjima qilish haqidagi birinchi g'oya Gotfrid Vilgelm Leybnits va Rene Dekartlar tomonidan ilgari surilgan. Keyinchalik AQShda Jorjtaun universitetida Leon E.Doster boshchiligidagi mashinali tarjima bo'yicha birinchi loyiha paydo bo'ldi. Rossiyada O.S.Kulagina va I.A.Melchuk mualliflik qilgan fransuz tilidan rus tiliga mashinali tarjimaning birinchi eksperimental tizimi tomonidan yaratilgan. Qozog'istonda T.K.Kayupov, E.Churikov, A.A.Sharpbaylar qozoq tilidan boshqa tillarga mashinali tarjima tizimlari va algoritmlarini ishlab chiqqan.

Til bo'yicha tarjimon dastur yaratishdan oldin tilning morfologik tahlili, tilda gap tuzilish strukturalari bo'yicha model va algoritmlar yaratilishi talab etiladi. O'zbek tili uchun morfologik tahlil ishlari uzoq vaqt davom etgan va bu bo'yicha juda samarali ishlar olib borilgan hamda olib borilmoqda. Jumladan, A.K.Po'latov

va M.Hakimovlar tomonidan kompyuter tilshunosligining muammolarini ishlab chiqish, mashinali tarjimani yaratishda yuzaga keladigan muammolar, o'zbek tili uchun formal grammatik tasvirlashning matematik modellari, ingliz va o'zbek tillarini solishtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Sh.A.Nazirov tomonidan turkiy tillar uchun elektron lug'atlarni shakllantirish masalasi davlat amaliyoti loyihalari doirasida ishlab chiqarilgan.

M.Aripov, N.Ignatov, Sh.Madraximov, A.Norov, N.Abdurahmonova, U.Tuliyev, G'.Matlatipov va S.Matlatipovlar tomonidan o'zbek tili fonetikasi hamda morfologiyasi sohasida bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek tilidagi polisillabik so'zlar uchun avtomat bo'g'in ajratish va ko'rish usullari hamda algoritmlari, lingvo-matematik modellari yaratilgan, o'zbek tili morfologiyasining morfotaktika va morfofonika ilovalari asosida Prolog mantiqiy dasturlash tili yordamida o'rganilgan hamda UzMORPP morfologik instrumenti ishlab chiqilgan. Ushbu yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, morfologik tahlil, gap tuzilish strukturalari bo'yicha salmoqli ishlar olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq REP-25112021/113 – "UzUDT: "O'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog'liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili" (2021-2024) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mashinali tarjimaning an'anaviy usullari va ilg'or modellari asosida 2 ta turkiy tillar o'rtasida tarjima qilish uchun mos algoritmlar hamda dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va qozoq tillarining grammatikasini o'rganish hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;

chog'ishtirayotgan tillar grammatik qoidalaridan foydalanilgan holda qiyosiy ontologik modellarni qurish;

o'zbek-qozoq tilining o'zbek-qozoq tilining qiyosiy ontologik modeli asosida bilimlar bazasi shakllantirish;

o'zbek tili xususiyatlarini inobatga olgan holda neyron mashinali o'qitish algoritmidan foydalanib tarjima modelini yaratish;

neyron to'ri asosida o'zbek va qozoq tillari uchun mashinali tarjima tizimini ishlab chiqish;

tarjima matnning sifatini baholash (BLEU) va o'zaro entropiya metrikalaridan foydalanib, tarjima aniqligi va semantik yaqinligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti o'zbek-qozoq tillari uchun mashinali tarjima tizimidan iborat.

Tadqiqot predmeti o'zbek-qozoq parallel korpusi asosida mashinali tarjima tizimini yaratish uchun statistik modellar, neyron mashinali tarjima usullari va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida sun'iy intellekt usullari, berilganlarning intellektual tahlili, tasniflash, rasmiylashtirish, ontologik modellashtirish, modulli

va obyektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

o'zbek va qozoq tillari grammatik qoidalaridan foydalanilgan holda qiyosiy ontologik modellari qurilgan;

chog'ishtirilayotgan tilning o'zbek-qozoq tilining qiyosiy ontologik modeli asosida bilimlar bazasi shakllantirildi;

o'zbek tili xususiyatlarini inobatga olgan holda neyron mashinali o'qitish algoritmidan foydalanib tarjima modeli yaratilgan;

neyron to'ri asosida o'zbek va qozoq tillari uchun mashinali tarjima tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va qozoq tillarining grammatikalari o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlar aniqlangan;

o'zbek va qozoq tillari grammatik qoidalarining ontologik modellari qurilgan; jumlar darajasida o'zbek va qozoq tillari uchun matnlar o'rtasidagi yozishmalar muvofiqlashtirilgan;

o'zbek va qozoq tillari uchun neyron mashinali tarjima tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining to'g'riligi va ishonchliligi tadqiqot ishlari natijasida yaratilgan aniq modellar hamda usullarning to'g'riligi, ishlab chiqilgan algoritm va dasturiy majmua orqali olingan natijalarning qiyosiy tahlillari orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotining natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy tilning grammatik qoidalarini rasmiylashtirish va kompyuterda qayta ishlash, shuningdek, dasturlashning modulli, obyektga yo'naltirilgan metodologiyalari, tabiiy tilning grammatik qoidalarini rasmiylashtirish, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalarida qo'llaniladigan nazariyalarni o'z ichiga oladi.

Tajriba natijasida tavsiya etilgan modellarning yutuqlari solishtirilib, tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Ishlab chiqilgan modellar va usullar tabiiy tildagi matnlarni avtomatik ravishda abstraksiyalash, qayta ishlashning boshqa amaliy vazifalarini hal qilishda, shuningdek, axborot qidiruv tizimlarida, o'rganish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda, shuningdek, elektron ta'lim tizimlarida, baholashda qo'llanilishi mumkin. Bu esa turkiy tilli davlatlar o'rtasida internet, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga olib keladi. Tadqiqot ishida olib borilgan tajribalar ta'lim, fan, san'at, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalaridagi har qanday ma'lumotlarni tarjima qilishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va qozoq tillari o'rtasida mashinali tarjima tizimi uchun ishlab chiqilgan algoritmlar hamda ularning dasturiy ta'minoti yordamida olingan ilmiy yangiliklar asosida:

o'zbek va qozoq tillarining grammatikalari o'rtasidagi aniqlangan o'xshashlik hamda farqlar, ikki til uchun yaratilgan parallel korpus, shakllantirilgan grammatik qoidalarining ontologik modellari va ishlab chiqilgan mashinali o'qitish algoritmlardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot

texnologiyalari universiteti Samarqand filialida bajarilgan grantda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 20-noyabrdagi 33-8/7790-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tili milliy korpusining matnlar bazasini hajmini ko'paytirish va dasturiy ta'minotning aniqligini 15 % oshirish imkonini bergan;

o'zbek-qozoq tilining qiyosiy ontologik modeli asosida shakllantirilgan bilimlar bazasi "Unicon SOFT" MCHJ Samarqand viloyat filialida tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 20-noyabrdagi 33-8/7790-son ma'lumotnomasi). Mazkur bilimlar bazasi asosida tuzilgan dasturiy vositaning tarjimon modeli natijalari Google va Yandex tarjimon tizimlari kabi natija berishi hamda ma'lumotlar to'plamini ko'paytirish orqali natijalarni yaxshilash imkoniyatiga erishish mumkinligi aniqlangan. Ma'lumotlarni tarjima qilish uchun sarf qilinadigan vaqt sarfini 11 %ga qisqartirishga xizmat qilgan;

"O'zbektelekom" AK Samarqand shahar telekommunikatsiya bog'lamasida mijozlar bilan aloqa jarayonida sinovdan o'tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan. Sinov natijasida tavsiya etilgan modellarning yutuqlari solishtirilib, tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlangan. Ishlab chiqilgan modellar va usullar tabiiy tildagi matnlarni avtomatik ravishda abstraksiyalash hamda qayta ishlashning boshqa amaliy masalalarini hal qilishda, shuningdek, axborot-qidiruv tizimlarida, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda va elektron ta'lim tizimlarida foydalanish mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot ishida olib borilgan tajribalar ta'lim, fan, san'at, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalaridagi har qanday ma'lumotlarni tarjima qilishda qo'llanilishi bilan izohlanadi (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 20-noyabrdagi 33-8/7790-son ma'lumotnomasi). Natijada mijozlar bilan muloqot jarayonida 13.5 % tezlik bo'yicha samarali natijaga erishish imkonini taqdim qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy va amaliy natijalari 6 ta xalqaro hamda 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsad

va vazifalar belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan va nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Mashinali tarjima masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida mashinali tarjima nazariy asoslari, umumiy ko'rinishlari, tarjima qilishda qo'llaniladigan usul va modellar qiyosiy tahlil etilgan. Mashinali tarjima masalalari dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qay yo'sinda yechilgan, qanday algoritmlar tavsiya etilgan va qanday natijalarga erishilganligi yoritilgan.

Tarjima jarayonida qo'llaniladigan asosiy usullar keltirilgan:

Qoida asoslangan mashinali tarjima usuli. Qoidalarga asoslangan mashinali tarjima (Rule-based Machine Translation), yoki lingvistik qoidalarga asoslangan mashinali tarjima 1950-yillarda qo'llanilgan birinchi usul edi. Birinchi RBMT tizimlari 1970-yillarning boshlarida ishlab chiqilgan. RBMT asosida Systran, Yaponiya MT tizimi, EUROTRA tizimi Apertium, GramTrans, Promt kabi ilg'or tizimlar paydo bo'ldi.

Bunday tarjima texnologiyasining keng ko'lamli vazifasi tabiiy tillarni ma'lum bir dasturiy ta'minot va apparat kompyuter muhitida amalga oshirilgan obyektlar sifatida rasmiy modellashtirish, shuningdek, turli xil tahliliy protseduralarni modellashtirish, tabiiy tillar uchun til birliklari va matnlarini integratsiya qilish, ya'ni bunday vazifa quyidagi tartiblarni talab qiladi:

- 1) grafik (simvol) tahlil;
- 2) morfologik hamda leksik tahlil va sintez;
- 3) sintaktik tahlil va sintez;
- 4) semantik transformatsiyalar.

Til tuzilishining barcha darajalari MT davomida qayta ishlanadi.

Modelga asoslangan mashinali tarjima. Misol asosidagi mashinali tarjima (Example Based Machine Translation) usuli 1984-yilda yapon tadqiqotchisi M.Nagao tomonidan taklif qilingan. Asosiy g'oya shundan iboratki, agar matnning muayyan turi va tor sohalari uchun ilgari tarjima qilingan iboralarning katta zaxirasi mavjud bo'lsa, keyingi matnlarning tarjimasi inson tarjimasiga o'xshash bo'ladi. Modelga asoslangan mashinali tarjima usulida "misol" yordamida tarjima qilish prinsipi, ikki tilda qo'sh gaplar qurish qo'llaniladi. Foydalanish qoidalariga ko'ra, u "o'xshashlik bo'yicha tarjima" (translation by analogy) deb ataladi.

Tarjima usulining asosiy tahminlari:

– Odamlar chuqur grammatik qoidalarga asoslangan sodda gaplarni tarjima qilmaydi.

– Aksincha, odamlar tarjimada dastlabki qadamlarni asl gapni qandaydir kichik guruhlariga bo'lish orqali qo'yadi. Keyin u ushbu iboralarni maqsadli tilga tarjima qiladi va oxirgi bosqichda ularni birlashtirib, samarali natijalar blokini yaratadi.

– iboralarni tarjima qilishda allaqachon "xotirada saqlangan" ma'lumotlardan foydalangan holda misollar keltiriladi.

Statistik tarjima usulida (SMT) o'nlab yillar davomida tarjima paradigmasi

sifatida hukmronlik qilgan. SMTning amaliy qo'llanilishi, odatda, turli uzunlikdagi so'z va iboralarni tarjima qiladigan frazeologik tizimlar hisoblanadi.

Statistik usullarni o'rganish zarurati Shennonning shovqinli kanal modeliga muvofiq tarjima jarayonini tarjima qilishdir.

Bu fikrga ko'ra, ko'rsatuvchi tildagi H gapi eshittirish kanali orqali o'tgan shovqin ta'sirida o'zgarib, asl tildagi K gapga o'tadi. Usulning prinsipi – translyatsiya kanalining chiqish nuqtasida hisobga olinadigan asl tildagi K jumlasidan kelib chiqib, maqsadli tildagi asl matnga kirish. Bunga erishish uchun quyidagi tenglamaning yechimini topish kifoya:

$$\hat{H} = \underset{H \in \text{Maqsadli til}}{\operatorname{argmax}} P(H|K) \quad (1)$$

Agar (1) tenglamadagi ehtimollik qiymatini Bays qoidasiga muvofiq qayta yozsangiz:

$$\hat{H} = \underset{H \in \text{Maqsadli til}}{\operatorname{argmax}} \frac{P(K|H)P(H)}{P(K)} \quad (2)$$

Bu tenglamada $P(K)$ ehtimollik barcha H ifodalari uchun doimiy bo'lgani uchun argmax operatori uchun natija o'zgarmaydi. Bu holda (2) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\hat{H} = \underset{H \in \text{Maqsadli til}}{\operatorname{argmax}} \underbrace{P(K|H)}_{\text{Tarjima modeli}} \underbrace{P(H)}_{\text{Til modeli}} \quad (3)$$

Ushbu tenglamaning ikkita alohida komponenti mavjud. Birinchisi $P(K|H)$ tarjima modeli deb ataladi va maqsad tildagi H jumlasini K -gapning asl tildagi tarjimasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ikkinchi komponent $P(H)$ jumlasining maqsad tildagi ehtimolini bildiradi. Bu ikki ehtimollik H gapning qiymatini ko'paytirish natijasidir.

Neyron mashinali tarjima usuli. Neyron Mashinali Tarjima (Neural Machine Translation (NMT)) – integratsiyalashgan modelda butun jumalarni modellashtirish orqali so'zlarni ketma-ketlik ehtimolini bashorat qilish uchun sun'iy neyron tarmog'idan foydalanadigan mashinali tarjima usuli. Chuqur o'rganish birinchi marta 1990-yillarda nutqni aniqlashda qo'llanilgan. 2014-yilda birinchi marta Google-ning iboralarga asoslangan tarjima tizimiga sezilarli yaxshilanishlar taklif qilindi.

NMT an'anaviy mashinali tarjima tizimlarining ko'pgina kamchiliklarini bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli yondashuv sifatida taklif qilingan. NMT ning kuchi uning kirish matniga qarab yakuniy o'zgarishlarni bevosita manba matniga o'rganish qobiliyatidadir.

Neural Machine Translationning afzalligi shundaki, u an'anaviy iboraga asoslangan mashinali tarjimaning ko'plab aniq dizayn variantlarini chetlab o'tadi. Biroq amalda NMT tizimlari tarjima tizimlariga qaraganda kamroq aniqroqdir, ayniqsa, mavjud bo'lgan eng yaxshi tarjima tizimlari uchun ishlatiladigan juda katta ma'lumotlar to'plamini o'rganishda. Neyron mashinali tarjimaning uchta kamchiliklari bu kamchiliklar bilan bog'liq: sekin o'qish va sekin chiqish tezligi, unikal so'zlar bilan ishlashning samarasizligi va ba'zan asl gapdagi barcha so'zlarni tarjima qila olmaslik. Birinchidan, NMT tizimini katta tarjima ma'lumotlar bazasida o'qitish, odatda, ko'p vaqt va hisoblash resurslarini talab

qiladi.

Gibrid mashinali tarjima usuli. Gibrid mashinali tarjima – bu mashinali tarjimaning bir tizimida mashinali tarjimaning bir nechta usullarini qo‘llash bilan tavsiflangan mashinali tarjima usuli. Ushbu texnologiya tarjima xotirasi asosida tezda sozlash, uslubni umumlashtirish va juda foydali ma’lumotlarni – terminologik lug‘atlarni olish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbek va qozoq tillarining qiyosiy ontologik modellari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ikki til o‘rtasida mashinali tarjima tizimini yaratishda tillarning grammatikasini o‘rganish va ular o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlash va grammatik qoidalarining ontologik modellarini qurish amalga oshirilgan.

Ikki til bir-biridan farqli jihatlari ko‘p bo‘lib, hattoki harflarda ham farqlar borligi aniqlandi. 1-jadvalda tillar o‘rtasida unli tovushlar keltirilgan.

1-jadval

O‘zbek va qozoq tillaridagi unli tovushlar

Til	Unli tovushlar soni	Unli tovushlar
O‘zbek	6	a, e, i, o, o‘, u
Qozoq	9	a, ə, e, ы, i, o, ө, ұ, ү

O‘zbek va qozoq tillaridagi har bir so‘z turkumining o‘zgarish tizimini ta’minlovchi o‘ziga xos so‘z yasovchi qo‘shimchalar hamda birikmalarga ega.

Turkiy tillarda eng ko‘p qo‘llaniladigan leksik-semantik sohalardan biri otdir. Otlarga ko‘plik qo‘shimchalari qo‘shilishi ularning birlik va ko‘plik guruhlariga bo‘linishiga asos bo‘ladi. O‘zbek va qozoq tillarining ko‘plik shakllari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O‘zbek va qozoq tillarining ko‘plik shakllari

O‘zbek	Qozoq	O‘zbekcha misol	Qozoqcha misol
-lar, -lari	-лар, -лер	bola-lar	бала-лар, үй-лер
-miz, -imiz		vazifa-miz, kitob-imiz	
-ngiz, -ingiz		vazifa-ngiz, kitob-ingiz	
	-дар, -дер		ғалым-дар, өзен-дер
	-тар, -тер		ат-тар, шөп-тер

Tadqiqot ishimizda qozoq tili o‘zbek tilidan qo‘shimcha va so‘z boyligi bilan farq qilishi aniqlandi. Egalik, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va boshqa sohalarda ham ko‘p ma’lumotli til ekanligini natijalarda ko‘rish mumkin.

3-jadvalda o‘zbek va qozoq tillarining egalik qo‘shimchalari keltirilgan.

3-jadval

O‘zbek va qozoq tillarining egalik qo‘shimchalari

Shaxs	O‘zbek	Qozoq	O‘zbek	Qozoq	O‘zbek	Qozoq
	Olmosh		Qo‘shimchalar		Masalan	
1-shaxs birlik	Mening	Менің	-m, -im	-м, -ім, -ым	Mening bolam	Менің балам

2-shaxs birlik	Sening	Сениң	-ng, -ing	-н, -иң, -ың	Sening bolang	Сениң балаң
3-shaxs birlik	Uning	Оның	-i, -si	-ci, -сы, -i, -ы	Uning bolasi	Оның баласы
1-shaxs ko'prik	Bizning	Биздің	-miz, -imiz	-imiz, -ымыз	Bizning bolamiz	Биздің баламыз
2-shaxs ko'prik	Sizning (hurmat)	Сиздің	-ing, -ingiz	-ңыз, -ңиз, -ыңыз, -иңиз	Sizning bolangiz	Сиздің балаңыз
3-shaxs ko'prik	Ularning	Олардың	-i, -si, -lari	-ci, -сы, -i, -ы	Ularning bolalari	Олардың балалары
2-shaxs ko'prik		Сендердің		-н, -иң, -ың		Сендердің балаларың
2-shaxs ko'prik		Сиздердің		-ңыз, -ңиз, -ыңыз, -иңиз		Сиздердің балаларыңыз

Protege platformasi ontologik modellashtirishning ikkita asosiy usulini qo'llab-quvvatlaydi: Protege-Frames muharriridan foydalanish; Protege-OWL muharriridan foydalanish. Protege-da qurilgan ontologiyalar funksional kengaytma modullarining mavjudligi tufayli osongina kengaytiriladigan arxitekturaga ega ochiq ontologiyalar bo'lib, ular RDF (RDFSchem), OWL va XMLSchema kabi ko'plab shakllarga o'tkazilishi mumkin.

1. O'zbek tilidagi sodda gaplarning tarkibiy daraxtini tuzish. Ma'lumki, Xomskiyning formal kontekstsiz grammatikasi (Context-Free Grammar (CFG)) ma'lum til sintaksisini rasman tavsiflash imkonini beruvchi matematik vositadir. Hozirgi vaqtda CFG tabiiy til komponentlari tuzilishini modellashtirish uchun keng qo'llaniladigan rasmiy tizimdir.

Ikki turkiy til sodda gaplarining sintaktik qoidalarini qurish uchun avvaliga Xomskiyning kontekstsiz grammatikasidan foydalanib, ular uchun tarkibiy daraxt tuzdik, so'ngra ularning semantikasini hisobga olgan holda Protege muhitida ontologik model yaratdik.

Ushbu qurilma yordamida ikki o'zbek tildagi sodda gaplarning sintaktik qoidalarini tuzamiz va ularning tarkibiy daraxtini yaratamiz. Lekin buning uchun biz maxsus lingvistik belgilar – teglarni joriy qilishimiz kerak.

O'zbekcha gaplarning tuzilishini tavsiflovchi teglar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

O'zbekcha gaplarning tuzilishini tavsiflovchi teglar

Teg	Ingliz	Rus	O'zbek	Qozoq
S	Simple sentence	Простое предложение	Oddiy jumla	Жай сөйлем
Sub	Subject	Подлежащее	Ega	Бастауыш
Obj	Object	Дополнение	To'ldiruvchi	Толықтауыш
Abr	Abreviatura	Определение	Aniqlovchi	Анықтауыш
Adl	Adverbial	Обстоятельство	Hol	Пысықтауыш
Pre	Predicate	Сказуемое	Kesim	Баяндауыш

CFG har biri til belgilarini birlashtirish va joylashtirish usullarini belgilaydigan qoidalar to'plamidan yoki qaror qabul qilish qoidalaridan iborat.

Umumiy G tipidagi CFG quyidagi parametrlar bilan aniqlanadi:

$$G = \langle N_s, T_s, R, S \rangle \quad (4)$$

Bu yerga:

N_s – terminal bo'lmagan belgilar (o'zgaruvchilar) to'plami;

T_s – terminal belgilar to'plami (konstantalar): bu yerda $N_s \cap T_s = \emptyset$;

$R - A \rightarrow \alpha$ turini yechish qoidalari to'plami, bu yerda A - terminal bo'lmagan belgi, $\alpha - N_s \cup T_s$ alifbosidagi belgilar qatori, ya'ni $\alpha \in (N_s \cup T_s)^*$;

S – boshlang'ich terminal bo'lmagan belgi.

Gapning tuzilishi ikki qismda ko'rsatilishi mumkin: ot va fe'l. O'zbekcha sodda jumlar sintaksisini maxsus CFGlar yordamida tasvirlash mumkin.

Masalan, o'zbekchada quyidagi sodda gapni aytaylik:

1. "Samad kitob o'qiyabdi" – "Самад китап оқып отыр";
2. "Samad kutubxonada kitob o'qiyabdi" – "Самад китапханада китап оқып отыр";
3. "Samad onasi bilan kecha keldi" – "Самад анасымен кеше келді";
4. "Eng yaqin do'stim Samad o'qiyabdi" – "Ең жақын досым Самад оқып отыр".


Ushbu jumalarning tuzilishini tavsiflash uchun biz KE parametrlari uchun quyidagi qiymatlarni beramiz:

$$N_s = \{S, NP, VP, Adj, Adv\}$$


$$T_s = \{S, a, d, e, g, h, i, k, l, m, n, o, p, r, t, s, \$, u, \ddot{u}, y\}$$

$$R = \{S \rightarrow NP \mid VP, NP \rightarrow N \mid N \mid Adj \mid Adv, VP \rightarrow N \mid V \mid Adv \mid NP \mid VP\}$$


Ushbu grammatik qoidadan foydalanib, yuqorida ko'rsatilgan o'zbek tilidagi jumlar tarkibiy qismlarining tarkibiy daraxtini 1-4-rasmlarda ko'rsatish mumkin:




1-rasm. $S(NP(N),VP(N,V))$ ning komponentlar daraxti.



2-rasm. $S(NP(N),NP(N,N)),VP(N,V)$ komponent daraxti.




3-rasm. Komponentlar daraxti
S(NP(N), VP(NP(N), VP(Adv,V)).




4-rasm. Komponentlar daraxti
S(NP(Adj), VP(NP(N), VP(N,V)).

5-rasmda o'zbek tilidagi otning Protege muhitida yaratilgan ontologik modelining bir qismi, 6-rasmda qozoq tilidagi ot ontologik modelining bir qismi keltirilgan.




5-rasm. O'zbek tilida otning ontologik modeli.




6-rasm. Qozoq tilida otning ontologik modeli.

O'zbek va qozoq tillarida sifatdoshlarning yasalishi bosh sifatlarga kuchaytiruvchi bo'g'in qo'shish orqali yasaladi. O'zbek va qozoq tilida kuchli harf "-" belgisi bilan ajratilib yoziladi. Masalan, o'zbek tilida yap-yangi, sap-sariq, top-toza, qozoq tilida **ап-анық**, **әп-әдемі**, **жеп-жеңіл** va boshqalar.

7-rasmda o'zbek tilidagi sifatning Protege muhitida yaratilgan ontologik modelining bir qismi, qozoq tilidagi sifat ontologik modelining bir qismi esa 8-rasmda keltirilgan.



7-rasm. O'zbek tilida otning ontologik modeli.



8-rasm. Qozoq tilida otning ontologik modeli.

Dissertatsiyaning "O'zbek va qozoq tillari o'rtasida mashinali tarjima tizimi" nomli uchinchi bobida o'zbek-qozoq tillari mashinali tarjima uchun ma'lumotlar to'plamini shakllantirish jarayonlari va neyron mashinali tarjimani

ishlab chiqish yoritilgan.

Parallel korpuslarni yaratish uchun ikki tilda mavjud bo'lgan ma'lumotlar to'plash u yoqda tursin, neyron tarmoq modeli uchun o'quv ma'lumotlari sifatida foydalanish uchun ochiq va yetarlicha katta bo'lgan tayyor matn korpusini to'plash juda qiyin hamda ko'p vaqt talab qiladigan vazifadir, ayniqsa, o'zbek va qozoq tillari kabi kam resursli tillar uchun. Ma'lumotlar to'plamini quyidagi manbalar orqali shakllantirdik:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi(UDHR);
- Apertium qozoq-o'zbek test ma'lumotlar to'plami;
- COVID19 Myth busters korpusi;
- Veb-yangilik ma'lumotlari (Kazinform sayti)
- Adabiy kitoblar;
- Qo'lda tarjima.

Yaratilgan parallel jumalarning statistik ma'lumotlarining batafsil tavsifi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Parallel jumalarning statistik ma'lumotlari

№	Bosqich	Manba nomi	Gaplar soni	So'zlar (uz)	So'zlar (kz)	Unikal so'zlar soni (uz)	Unikal so'zlar soni (kz)	O'rtacha jumladagi so'zlar soni (uz)	O'rtacha jumladagi so'zlar soni (kz)
1.	1	UDHR	61	1380	1535	724	760	22.6	25.2
2.		Apertium qozoq-o'zbek test ma'lumotlari	49	321	345	206	219	6.6	7.0
3.		COVID19 Myth busters korpusi	28	288	314	197	209	10.3	11.2
4.	2	Veb-yangilik ma'lumotlari	315	4220	4335	2331	2348	13.4	13.8
5.		Kichkina shahzoda	1688	10870	12270	4200	4633	6.4	7.3
6.		Kapitan qizi	3008	26767	28276	9753	11010	8.9	9.4
7.		O'n besh yoshda kapitan	8012	81094	89637	18549	20284	10.1	11.2
8.		Shayton ko'prigi	11822	99319	110259	24655	29454	8.4	9.3
9.	3	Qo'lda tarjimalar	100000	526207	536674	47355	48768	5.3	5.4
Umumiy soni / o'rtacha			124983	750466	783645	107970	117685	10.2	11.1

Yakuniy bosqich barcha manbalarni yagona ma'lumotlar to'plami sifatida birlashtirish va takroriy jumalarni olib tashlash uchun oxirgi filtrni qo'llashdan iborat bo'lgan olingan kichik to'plamlarga qo'llanildi. Yakuniy birlashtirilgan ma'lumotlar to'plamining statistikasi 6-jadvalda keltirilgan.


6-jadval

Yakuniy birlashtirilgan ma'lumotlar to'plamining statistikasi


Har bir til uchun statistika	O'zbek	Qozoq
Gaplarning umumiy soni	121138	
So'zlarning umumiy soni	746738	759357
Unikal so'zlarning umumiy soni	89967	104888
Har bir jumladagi so'zlarning o'rtacha soni	6.2	6.3

Ikki til uchun ma'lumotlar to'plamidan foydalanib tarjimon model qurishni boshlaymiz. Kam resursli tillar uchun eng mos tarjimon usullaridan biri bu neyron mashinali tarjima (NMT) hisoblanadi. Hozirgi kunda ommalashgan NMT modellaridan biri bu transformer modeli hisoblanadi.

Transformerlar zamonaviy NLP modeli bo'lib, kodlovchi-dekodlovchi arxitekturasining evolyutsiyasi hisoblanadi. Elementlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali kontekst va ma'noni tushunish uchun maxsus ishlab chiqilgan va buning uchun deyarli butunlay matematik texnikaga tayanadi. 9-rasmda Transformer modelining kodlovchi va dekodlovchi strukturasi keltirilgan. Bu qismlar N ta qatlamlardan tashkil topgan struktura orqali ishlaydi. 10-rasmda kodlovchi va dekodlovchining N qatlamli strukturasi keltirilgan.




9-rasm. Transformer modeli.



10-rasm. N qatlamli struktura.

Kodlovchining asosiy vazifasi kirish tokenlarini kontekstli tasvirlarga aylantirishdir. Tokenlarni mustaqil ravishda qayta ishlaydigan oldingi modellardan farqli o'laroq, Transformer kodlovchisi har bir tokenning kontekstini butun ketma-ketlikka nisbatan qamrab oladi. Dekodlovchining roli matn ketma-ketligini yaratishga qaratilgan. Kodlovchini aks ettirgan holda, dekodlovchi shunga o'xshash pastki qatlamlar to'plami bilan jihozlangan. U ikkita ko'p yo'nalishli e'tibor qatlamiga, oldinga yo'naltirilgan qatlamga ega va har bir pastki qatlamdan keyin qoldiq ulanishlarni hamda qatlamni normallashtirishni o'z ichiga oladi. 11-rasmda kodlovchi arxitekturasini 12-rasmda dekodlovchi arxitekturasini keltirilgan.




11-rasm. Kodlovchi (Encoder). 12-rasm. Dekodlovchi (Decoder).

Dekodlovchi bitta qatlam bilan chegaralanib qolmaydi. U N ta qatlam bilan tuzilishi mumkin, ularning har biri kodlovchi va undan oldingi qatlamlardan olingan kirishga asoslanadi. Bunday ko'p qatlamli yondashuv modelning bashorat qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin, chunki u turli xil diqqat kombinatsiyalarini yanada nozikroq tushunishni imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Tarjimon modelining ishonchliligi va natijaviyligi”** nomli to'rtinchi bobida ishonchlilik ko'rsatkichlari, tarjimon modelining natijaviyligi va boshqa tarjimon tizimlari bilan solishtirishdan olingan natijalar yoritilgan.

Birinchi navbatda, ikki til o'rtasidagi mutanosiblik qay darajada ekanligi baholanadi. Gap yasovchi qo'shimchalar, ko'plik shakllari, gap tuzilish strukturalari va boshqalar. 13-rasmda ikki til o'rtasidagi mutanosiblik grafigi keltirilgan.




13-rasm. Ikki til o'rtasidagi mutanosiblik grafigi.

BLEU (Bilingual Evaluation Understudy) ballidan foydalanib, NMT chiqishini bir yoki bir nechta mos yozuvlar tarjimalari bilan solishtiradi. Ushbu ko'rsatkich mashinali tarjima va mos yozuvlar matnlari o'rtasidagi n-grammlarning bir-biriga mos kelishini o'lchaydi. BLEU algoritmi inson va mashinali tarjimani solishtirish hamda umumiy parchalarni qidirish asosida tarjimani 0 dan 100 gacha bo'lgan shkalada baholaydi. Asosiy g'oya shundan iboratki, qancha mos kelsa, tarjima shunchalik yaxshi bo'ladi.

BLUE ball quyidagicha hisoblanadi:

$$BLEU = BP \times \exp\left(\sum_{n=1}^N w_n \log p_n\right) \quad (5)$$

BLUE ball hisoblash grafigi 14-rasmda keltirilgan.




14-rasm. BLUE ball hisoblash grafigi.

Mashinali tarjima sifatini baholash uchun ko'rsatkich. Ko'rsatkich n-gramlardan foydalanishga asoslangan va manba matnni izchil hamda to'g'ri baholashga qaratilgan. BLEU ko'rsatkichidan farqli o'laroq, bu ko'rsatkich aniq so'zlarni moslashtirish bilan birga sinonimlarni moslashtirishdan foydalanadi. Ushbu ko'rsatkich mashhurroq BLEU ko'rsatkichida topilgan muammolarni hal qilish va ibora hamda jumlar darajasida ekspert baholari bilan yaxshiroq bog'lanish uchun mo'ljallangan.

TER (Tarjimani tahrirlash tezligi): gipotezani havolalardan biriga o'zgartirish uchun zarur bo'lgan tahrirlar sonini hisoblab chiqadi.

Tarjimani tahrirlash tezligi grafigi 15-rasmda keltirilgan.




15-rasm. Tarjimani tahrirlash tezligi grafigi.

Ideal holda, tekshirishning aniqligi treningning rivojlanishi bilan ortib borishi kerak, bu model ko‘rinmas ma’lumotlarni yaxshiroq o‘rganish va umumlashtirishni ko‘rsatadi.


Doimiy o‘sish tendensiyasi samarali o‘rganishni taklif qiladi.

16-rasmda tasdiqlash aniqligi tendensiyasining grafigi keltirilgan.



16-rasm. Tasdiqlash aniqligi tendensiyasi grafigi.

Tabiiy tilni qayta ishlash vazifalarida, ayniqsa, tilni modellashtirish va mashinali tarjimada, chalkashlik (PPL) modelning ishlashini baholash uchun ishlatiladigan umumiy ko‘rsatkichdir. Murakkablik – ehtimollik taqsimoti yoki ehtimollik modeli namunani qanchalik yaxshi bashorat qilishining o‘lchovidir. 17-rasmda chalkashliklarni bartaraf etish grafigi keltirilgan.



17-rasm. Chalkashliklarni bartaraf etish grafigi keltirilgan.

Tarjimon modelini testlash jarayonida har bir qadamda parallel korpus tarkibidagi ma'lumotlarga mosligini tekshirib boradi. Har qadamda tarjima sifati yaxshilanib boradi.

18-rasmda o'zbek-qozoq NMT modelini testlash keltirilgan.



18-rasm. O'zbek-qozoq NMT modelini testlash.

Tarjimon modeli ikki til uchun qilingan bo'lib o'zbek tilidan qozoq tiliga va qozoq tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib beradi. Bu ish birinchi marotaba qilingani uchun tarjima modelimizni boshqa ish bilan solishtirish imkoni bo'lmadi. Shu sababli hozirgi kundagi ommalashgan tarjimon tizimlari bilan solishtirdik.

7-jadvalda o'zbek-qozoq va qozoq-o'zbek tarjimon modeldan olingan natijalar keltirilgan.

7-jadval

Tarjimon modeldan olingan natijalar

O'zbek tilidagi gap	Yandex tarjimon	Google tarjimon	NMT modeli (UzKz)
Unga bera oladigan yordamingiz uchun oldindan rahmat aytmogchiman.	Мен оған барлық көмегіңіз үшін алдын ала алғыс айтқым келеді.	Оған кез келген көмегіңіз үшін сізге алдын ала алғыс айтқым	Мен оған көрсете алатын кез келген көмегіңіз үшін сізге алдын ала алғыс

		келеді.	айтқым келеді.
O'qituvchi kirib kelganida gapirishni to'xtating.	Мұғалім кірген кезде сөйлесуді тоқтатыңыз.	Мұғалім кірген кезде сөйлесуді тоқтатыңыз.	Мұғалім кірген кезде сөйлесуді тоқтатыңыз.
Qozoq tilidagi gap	Yandex tarjimon	Google tarjimon	NMT modeli (KzUz)
Ата-анасы сәбиге Акиёши деген ат қойды.	Ota-onalar chaqaloq Akiyoshi nomidagi.	Ota-onalar chaqaloqqa Akiyoshi deb nom berishdi.	Ota-onalar chaqaloqqa Akiyoshi deb nom berishdi.
2008 yilda Delta va Northwest aviakompaniyalari birlashib, dunyodagi eng yirik aviakompaniyani tashkil qilishdi.	2008 жылы Delta және Northwest бірігіп, әлемдегі ең ірі авиакомпанияны құрды.	2008 жылы Delta және Northwest Airlines бірігіп, әлемдегі ең ірі әуе компаниясын құрады.	2008 жылы Delta және Northwest әуе компаниялары бірігіп, әлемдегі ең ірі әуе компаниясын құрады.

Natijalardan ko'rinadiki, tarjimon modelimiz natijalari Google va Yandex tarjimon tizimlari kabi natija bermoqda. Ma'lumotlar to'plamini ko'paytirish orqali undanda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Buni bizning tarjimon modelimiz ta'minlaydi.

XULOSA

“O'zbek va qozoq tillari o'rtasida mashinali tarjima tizimi” mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida quyidagi asosiy natijalar olindi.

1. O'zbek va qozoq tillarining grammatikasini o'rganildi hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlandi. Oddiy jumlar sintaksisini rasmiylashtirish uchun Xomskiyning kontekstsiz grammatikasidan foydalanilgan va komponentlar daraxti tuzilgan.

2. O'zbek va qozoq tillari grammatik qoidalaridan foydalanilgan holda qiyosiy ontologik modellari qurildi. Jumlar darajasida o'zbek va qozoq tillari uchun matnlar o'rtasidagi yozishmalar muvofiqlashtirildi.

3. O'zbek-qozoq tilining parallel korpusidan foydalanilgan holda lingvistik qoidalar asosida bilimlar bazasini shakllantirildi. Yaratilgan bilimlar bazasini miqdori 125 ming jumlani tashkil qiladi. Bilimlar bazasi “Hugging Face” elektron platformasiga joylashtirildi.

4. O'zbek-qozoq tillari uchun neyron mashinali tarjimasi ishlab chiqildi. Mashinali tarjima ishlab chiqishda “Transformer” modelidan foydalanildi. Bu model o'zbek tilidan qozoq tiliga va qozoq tilidan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi tarjima tizimini yaratish imkonini beradi.

5. Neyron to'ri asosida o'zbek va qozoq tillari uchun mashinali tarjima tizimini ishlab chiqildi. Tarjima tizimi soha ekspertlari uchun qaror qabul qilishda yordamchi sifatida ishlatilib, yakuniy qaror ishonchligini baholash imkoniyatini yuzaga keltirdi.

6. Tarjima matnning sifatini baholash (BLEU) va o'zaro entropiya metrikalaridan foydalanib, tarjima aniqligi va semantik yaqinligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2021.Т.142.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АЛЛАБЕРДИЕВ БОБУР БАХТИЯРОВИЧ

**СИСТЕМА МАШИННОГО ПЕРЕВОДА МЕЖДУ УЗБЕКСКИМ И
КАЗАХСКИМ ЯЗЫКАМИ**

05.01.11 – Цифровые технологии и искусственный интеллект

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована под номером B2023.4.PhD/T4191 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.airi.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рахмонов Зафар Равшанович
Доктор физико-математических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Мухамедиева Дилноз Тулкуновна
доктор технических наук, профессор

Мадрахимов Шавкат Файзуллаевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Нукусский филиал Ташкентского
университета информационных технологий**

Защита диссертации состоится 11.12.2024 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.13/30.12.2021.T.142.01 при Научно-исследовательском институте развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. (Адрес: 100125, город Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, Буз-2 массив, дом 17А. Тел.: (99871) 263-41-98, e-mail: info@airi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. (регистрационный номер № 50). (Адрес: 100125, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский р-н, Буз-2, 17А. Тел.: (99871) 263-41-98.

Автореферат диссертации разослан «17» декабрь 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 19 от «10» декабрь 2024 г.).



Н. Равшанов

Председатель научного совета,
доктор технических наук, профессор.

Ф.М. Нуралиев

Ученый секретарь научного совета,
доктор технических наук, профессор.

Ш.Х. Фазилов

Руководитель научного семинара
при научном совете, доктор
технических наук, профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации PhD)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом масштабе множество научно-практических исследований показывают, что не только быстрый и эффективный поиск информации в сети интернет является важным, но и создание эффективных машинных систем перевода между различными языками. Благодаря быстрому развитию информационных технологий и общественной цифровизации объем информации на различных языках в повседневной жизни человека постоянно увеличивается. Межкультурное взаимодействие является неотъемлемой частью жизни многих людей, поэтому использование систем перевода становится обыденной задачей для рядового пользователя интернета.

Сложность и неоднозначность перевода между всеми естественными языками рассматривается как одна из основных проблем, связанных с переработкой языков. В связи с этим спрос на исследования, направленные на нейтрализацию языковых аномалий, обычно довольно высок. Именно поэтому исследование проблемы машинного перевода для тюркских языков на основе технологий искусственного интеллекта, разработка эффективных моделей и алгоритмов, а также создание программных комплексов являются одной из важных задач в области искусственного интеллекта.

В настоящее время в мире проводится множество исследований в области компьютерной обработки тюркских языков, большое внимание уделяется созданию систем и технологий активного использования тюркских языков как языков сбора, обработки и передачи информации. в киберпространстве. В этом случае важное значение приобретают системы межъязыкового перевода, автоматизация морфологического анализа и аннотирования текстов. Поэтому растет потребность систематизировать крупномасштабные данные, собранные с учетом особенностей языков, обработать их и создать на их основе новые знания. В частности, целевыми научными исследованиями являются построение модели нейронного машинного перевода для турецких языков и создание параллельного корпуса.

В нашей стране особое внимание уделяется решению практических и фундаментальных проблем в таких отраслях, как промышленность, логистика, медицина, сельское и водное хозяйство, телекоммуникации и общественные сферы, с применением современных информационных технологий. Одним из важных направлений является «Создание интеллектуальных программных продуктов, способных обрабатывать большие объемы цифровых данных на государственном языке с использованием искусственного интеллекта для обучения». В частности, это включает в себя формирование крупных наборов данных на государственном языке для обучения и создания интеллектуальных программ, которые могут анализировать и синтезировать речь на этом языке. Особенно были достигнуты значимые результаты в анализе текстового материала и выявлении сентиментов, создании корпуса для сентимент-анализа на узбекском языке, разработке информационных моделей на его основе,

